

O'ZBEK SHOIRASI ZULFIYANING VAFODORLIK RUHIDA YOZILGAN SHE'RLARI TAHLILI

*Andijon davlat universiteti magistri
Maqsudova Odina Mutalifjon qizi*

Annotation: *Ushbu maqolada xaqqiy o'zbek ayolining vofosi, sadaqati xaqida yozilgan she'rlarining taxlili xamda Zulfiyaning Hamid Olimjonga bo'lgan vafosi va sadoqati unga bo'lgan mehr-u muhabbati xaqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: "Hayot varaqlari", "She'rlar", "Qizlar qo'shig'i" Naim Karimov

Annotation: *This article analyzes the poems written about the loyalty and loyalty of a real Uzbek woman, and also talks about Zulfiya's loyalty and love for Hamid Alimjan.*

Keywords: "Pages of Life", "Poems", "Girls' Song" Naim Karimov.

Zamondoshlari doim Zulfiyani iliq taassurotlar bilan esga olishardi. Hozir ham shunday. Butun O'zbekiston bo'ylab 1-mart kuni Zulfiyaxonim tavalludiga bag'ishlangan bayram tadbirlari bo'lib o'tadi. Eng yodda qolarli taassurotlardan ba'zilarini eslab o'tish maqsadga muvofiq bo'lardi. Xususan, taniqli adabiyotshunos Ozod Sharofiddinov shunday xotirlaydi: "Bugun tongda Zulfiya opani esladim. Naqadar oljanob, naqadar nuroniy ayol edilar. O'ylab qarasam, Zulfiya opa o'ozlarining she'rlari bilan, iboli va hayoli fe'li atvori bilan, pokiza e'tiqodi-yu zukko fikrlari bilan mening hayotimdan katta o'rinni olgan, ma'naviy dunyomning katta bir qismini tashkil qilgan inson bo'lgan ekan. U kishi shunday ulug'sifat ayol edilarki, har gal ro'para kelganimda darrov hushyor tortar, kiyim-kechaklarimni to'g'rilar, qadalmay qolgan tugmalarimni qadar, sochlaramni (ha, ha sochlaramni – bir zamonlar bu bosh ustida qop-qora sochlarni ham bo'lar edi) tekislab olardim – xullas, u kishining ko'ziga har jihatdan orasta bo'lib ko'rinishga tirishardim. Men Zulfiyaning nomini urush yillaridayoq eshitgan, uning "Hijron" degan she'riy to'plamini, "Uni Farhod der edilar" degan dostonini yod olib, ko'p joylarda o'qib yurardim. Yaqinroqdan tanishish keyinroq nasib qildi."

Shoiraning mundarijasida juda ko'plab ishq mavzusidagi, xossatan, Hamid Olimjon uchun atalgan she'rlari bisyor. Shunday ekan yana ba'zi she'riy guldastalarini tahlilga tortish maqsadga muvofiqdir. Zero, ularidan bizga "baxt kuychisi" bo'lgan sevikli yor boqib turibdi.

Agar Zulfiyaning asarlarini bir bog' deya tasavvur etsak, ko'plab she'riyat ihlosmandlari uchun "Men o'tgan umrga" nomli she'ri shu bog'dagi eng sara guldasta hisoblanadi. Ushbu she'rda shoiraning butun hayoti aks etgandek go'yo. Bosib o'tilgan

umr yo'li, boshdan kechirilgan yaxshi va yomon kunlarning taassurotlari mana shu she'rga jamlangan.

Hayot kitobimni bexos varaqlab,
 Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim.
 Tabassum o'rnida kuldim charaqlab.
 Suyish kerak bo'lsa - telbacha suydim.

Xalqimizda "do'ppini bir chetga qo'yib" degan ibora bor. Ko'plab insonlar umrini, o'tkazgan vaqtini sarhisob qilar ekan, ular uchun shu iborani ishlatish to'g'ri bo'ladi. Mazkur she'r ham ana shunday vaziyatda yozilgan. Bu butun bir umrning sarhisobi. Shu sababdan ham yakdil xulosa chiqarilgan. Zulfiya o'tkazgan umriga achinmaydi. Butun umr firoq o'tida yonib, o'zi yolg'iz yashagan bo'lsa ham, faqat o'zigagina ayon bo'lgan ming turli qiynoqlar girdobida umrini o'tkazgan bo'lsa ham achinmaydi. Ilk bandning so'nggida esa ulkan muhabbatining e'tirofi bor. Zulfiya telbalarcha oshiq, u bir insonni telbalarcha sevgan.

Shoiraning yuragi badavlat, u eng boy qalb hisoblanadi. Shu sababdan o'tkinchi bo'lgan badanni yopib turgan libosning qimmatiga ahamiyat qaratmagan. Keyingi bandda aynan shularni aytib o'tadi Zulfiya:

Kiyganim ipakmi, chitmi yo kimxob,
 Yurak boyligidan qilmabman parvo.
 Meni og'ushlagan hayot naq oftob,
 Yangi qo'shiq talab unda har saboq.

Agar bir inson bir jumlani ikki bor qaytarayotgan bo'lsa demak, uning aytayotgan so'zlari haqiqat. Ayni Zulfiya kabi. E'tibor bergen bo'lsangiz, shoira ham she'r davomida "Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim" degan jumlani ikki bor qaytaradi:

Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim,
 Hech kimda ko'rmayin umrimga o'xshash:
 Suydim,
 Erkalandim,
 Ayrildim,
 Kuydim,
 Izzat nima - bildim.
 Shu-da bir yashash!

Aynan mana shu oxirgi band Zulfiyaning ishq safarini yoritib beruvchi o'ziga xos ssenariy bo'ldi. Har bir misra umrning bir pallasi bildirib turibdi. Shoira avval suydi, so'ng erkalandi, so'ng ayrildi, eng oxirida esa kuydi. U uchun yashash mana shundan iborat. Mana shu sababdan ham zamondoshlari shoirani doim ulug' so'z sohibi sifatida yodga oladilar.

O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov esa shunday yozadi: "Nega men so'zni "Hijron kunlarida" kitobidan boshladim? Axir ungacha ham Zulfiyaning "Hayot varaqlari", "She'rlar", "Qizlar qo'shig'i" singari she'riy to'plamlari nashr etilgan edi. Bu to'plamlardagi o'zining tiniq jozibasi bilan kishini rom etuvchi talay she'rlar o'sha vaqtdayoq Zulfiya ismini adabiyotga olib kirgan va mustahkam mavqe bergen ed. Biz bu kun o'sha kitoblarni varaqlab mahorat bosqichlarini poyama-poya egallab borayotgan iste'dod nafasini sezamiz, she'riyatning umidli kelajagini ko'ramiz. Lekin "Hijron kunlarida" kitobini o'qiganda biz shunga amin bo'lamicki, shoirlilik iste'doddan ham, mahoratdan ham yuqoriqoq tushuncha. Yaxshi she'rlar yozmoqning, hatto barkamol satrlar bitmoqning o'zi hali haqiqiy ma'nodagi shoirlilik emas. Toki butun kitob va har bir misrada shoirning o'zligi, bor olami bilan qalb-u idroki, dard-u quvonchi, tarjimai holi va dunyoqarashi bilan she'rning egasi namoyon bo'lmas ekan, dilkash-u dardkash Inson ko'rinish turmas ekan – bu hali to'la ma'nodagi she'riyat emas.

"Hijron kunlarida" kitobi bilan o'zbekning uyida shoira tug'ildi, ayol zotining fidoyilik va bardosh, jasorat va nazokat, umid va o'kinch to'la sadosi bo'lib shoira dunyoga keldi va dunyoga kelgan kundan o'zining boqiyligini ta'min etdi.

Zulfiyani shoir qilgan o'z dardli qismati va bu dardli qismat haqidagi samimiyl va ehtirosli nidosi. Ulug'lardan biri aytgan ekan: "Shoirni iztirob yaratadi va bu iztirob she'riyat uchun quvonch bo'ladi". Bu so'zlar bus-butun shoira Zulfiyaga taalluqlidir. Shoirani dunyoga keltirgan ulug' iztirob o'z aksiyati bo'lgan ulug' baxtni ham yaratdi. Bu ulug' baxt to'la-to'kis xalq va she'riyatnikidir.

She'riyat olamiga har bir ijodkor o'z qo'shig'i bilan kirib keladi. Zulfiya she'riyatga Vafo qo'shig'i bilan kirdi. Va bu qo'shiq ayol sadoqatining yuksak tarannumiga aylandi."

Zulfiya doim sog'inch ichida yashadi. Shu bois uning "Sog'inib" nomli she'ri quyidagicha boshlanadi:

Shu kundarda bahorga zorman,

Navjuvonlik o'ti tanda yo'q.

Uning qalbida muhabbat bor edi, lekin o'sha muhabbatning sababchisi bo'lgan kishi, ya'ni she'riy o'xshatish orqali aytadigan bo'lsak, olov yo'q edi. Bu olovni Zulfiya navjuvonlik o'ti deya nomladi. Ko'rib turganingizdek, yana asosiy qahramon bahor bo'ldi. Chunki Zulfiya uchun bir paytlar bahorni sevgan turmush o'rtoqning o'zi bahorga aylanib qolgandi. Quyidagi misralardan buni sezish qiyin emas:

Shu kunlarda bahorga zorman,
O'z bahorim kabi bemisol.

Zulfiya uchun albatta, hech kim Hamid Olimjon kabi bo'lmedi. bo'lomadi. Shu sababdan ham shoira vafoning ramziga aylandi. Zulfiya yorning vafotidan so'ng o'zida bu qadar kuchni qaydan topdi? "Balki" deb nomlangan she'rda shunday deyiladi va biz buni shoiradagi kuchning manbayi deb bildik:

Ko'mib yubormoqchi sen tul yoshliging,
U - faqt yashnashga qodir tabiat.
Balki, baxt bekasi atagan kishing –
Ruhi ham istamas xazoning bevaqt?

U vaqt kelmay turib xazonga aylanib ketishi mumkin edi. Chunki Hamid Olimjon vafot etgan paytda Zulfiya endigina 29 yoshda edi. Bu ba'zi hisob-kitoblarga ko'ra o'rta yosh ham hisoblanmaydi. Lekin shoira hayot bo'ronida sovrilib ketmadi. O'zini qo'lga ola bildi. Sababi o'z umrini atagan kishining ruhi albatta, shunday qilishini istagan bo'lardi. Boshqa bir she'rida Zulfiyaning o'zi aytganidek, Zulfiya yashar ekan, Hamid Olimjon ham barhayot edi. "Qayda o'z sevinchim" nomli she'rda esa Zulfiya yorni izlash jarayonida shunday savollarni o'rta qo'yadi:

Qayda o'sha qaytmovchi sevinch?
Qo'lga tutolmagum bebahosib!

Shoiraning nomini ulug'lash maqsadida mustaqil O'zbekiston hukumati tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilgan. Shulardan biri, agar ta'bir joiz bo'lsa, eng muhimi Zulfiya nomidagi davlat mukofotining ta'sis etilganidir. Ushbu mukofot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida" 1999-yil 10-iyundagi farmoniga binoan ta'sis qilingan. Maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarida a'lo xulqi, zukkoligi, donoligi, tashabbuskorligi, o'qishdagi muvaffaqiyatlari bilan alohida iste'dodini namoyon qilib ta'lim olayotgan, istiqlol g'oyalarini amalga oshirish yo'lida astoydil mehnat qilayotgan 30 yoshgacha bo'lgan iqtidorli qizlarga adabiyot, madaniyat, sport, san'at, fan, ta'lim, jamoatchilik va axborot texnologiyalari sohalaridagi alohida yutuqlari uchun beriladi. Mukofot Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining bittadan vakillariga jami 28 nafarga beriladi. Mukofotning har biri eng kam oylik ish haqqining 50 baravari miqdorida tayinlangan. Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibalari bo'lgan maktab, litsey, kollej o'quvchilari tanlagan yo'nalishlari bo'yicha oliy o'quv yurtlariga imtihonsiz qabul qilinadi, ularga ko'krak nishoni va diploma topshiriladi. Mukofot O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasining raisi rahbarlik qiladigan komissiya xulosalari asosida Vazirlar

Mahkamasi qarori bilan har yili 8-mart – Xotin-qizlar kuni bayrami arafasida berilgan. Shavkat Mirziyoyevning 2021-yildagi qarori bilan Zulfiya nomidagi davlat mukofoti komissiyasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi qoshidagi jamoatchilik asosida faoliyat olib boradi va jamoatchilikka vazirning birinchi o'rnbosari rahbarlik qiladi.

Bundan tashqari, Jizzah shahrida Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi ya'ni o'zbek tili va adabiyoti fanini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab-internati tashkil etilgan.

Umumiy holatda aytadigan bo'lsak, Zulfiya barhayot bo'lgan ijod namunalarini yarata oldi. Uning she'rlari nafaqat shoirani, balki Hamid Olimjonni ham adabiylikka mahkum etdi. Chunki shoiraning har bir satridan sevikli yor o'qiguvchiga boqib turardi. Chinakam vafo timsoli bo'la olgan Zulfiyaxonim Isroilovani adabiyot ixlosmandlari, kelajak avlodlar, hech bir o'zbek unutmaydi.

Zulfiyaning she'riyati odatiy she'r uslubi emas. Uni anglash uchun katta ruhiy va ma'rifiy tayyorgarlik kerak. Chunki u ishq ruhida qalam tebratgan, sevikli yori bo'lmish Hamid Olimjonning izidan borib, ulardan o'ziga quvvat ola bilgan ijodkordir. She'rlardagi keskir qarashlar, shirin va ba'zan achchiq so'zlar shoir ijodida haqqoniyligga olingan. Ya'ni u yasama so'z termaydi, hijron deganida, boshqalar ham qo'shilib yonadi. Ishq deganida, o'zgalar ham oshiq bo'ladi, shoira nadomat chekkanida, o'quvchi ham qo'shilib, o'sha ruhiy holga beixtiyor tusha oladi.

Shoira ijodini o'rganish vositasida topganlarimizni siz bilan bo'lishishni istadik, bu yo'lida Zulfiya bilan suhbatda bo'lganlarni, uning ijodini sevib o'qiganlar, o'rgangan olimlarning mulohazalaridan foydalandik.

Hamid Olimjon va Zulfiyani aslida taqdir bir oraga keltirdi. Naim Karimov shunday yozadi: "To'y arafasida ikki yoshning bir-biriga tuygan maylidan ogoh bo'lgan shoiraning akasi Normat aka bo'lajak kuyov bilan tanishish ishtiyoqini bildirgan edi. Kunlarning birida u Zulfiya orqali Hamid Olimjonni o'sha paytda Maksim Gorkiy nomi bilan atalgan Madaniyat va istirohat bog'iga, kontsertga taklif etdi. Ular bog'ning panjarali darvozasi oldida uchrashar ekanlar, Hamid Olimjon bilan Normat Isroilov eski qadrdonlardek quyuq ko'risha ketdilar. Ma'lum bo'lishicha, Hamid Olimjon Toshkentga ko'chib kelib, Observatoriya ko'chasidagi uyni o'z nomiga rasmiylashtirganda, tasodif amri bilan bo'lajak qayin og'a unga yordam bergen ekan."

"Zulfiya o'zbek she'riyatida o'ziga xos bir maktab yaratgan edi. Uning shogirdlari ko'p edi. Bulardan ayrimlari – Oydinxon, Qutlibeka va boshqalar bugun Zulfiya opaning chirog'ini so'ndirmaslikka harakat qilib, samarali ijod etmoqda. Shoira shogirdlari bilan birga go'zal bir she'riyat chamani yaratib ketdi. Xo'sh, bugun bu bo'ston qay ahvolda? Uning holidan ogoh bo'lib, parvarishiga qarab turgan she'rshunoslar, she'rparastlar bormi yo u yetim qoldimi? Albatta, bugungi

she’riyatimiz yetim qoldi desak noto’g’ri bo’lardi, she’riyat bo’stoni qarovsiz yotipti, o’z holiga tashlab qo’yilgan, desak ham haqiqatdan uzoq bo’lardi. Zabardast shoirlar bor, ularning tanlangan asarlari, yangi to’plamlari chiqib turibdi. Shu bilan birga, shoir Erkin Vohidov aytgan “daho she’rlar” yaratilmayapti. She’riyatda borgan sari maydalashish holati sodir bo’lyapti. Shoirlar o’zi bilgan narsalarni yozish o’rniga sun’iy gaplarni to’qib chiqaradi, yasama gaplarni gapiradi. Ba’zilar hali yigirmaga to’lar-to’lmas “kuydim-pishdim”ga o’tishadi, “o, dastingdan dod, dunyo” deb hayqiradi, ba’zilar “charxning men ko’rmagan dardu balosi qoldimu?” degan savollarga ko’mib tashlaydi, yana ba’zilar chillaga kirgan mulladek, she’rda shunaqa ko’chalarga kirib qolishyaptiki, yoqa ushlamay ilojing yo’q. Yaqinda bir shoirning she’rini televizorda tahlil qilishdi. Uning yori betob ekan. Uzoqdan o’rtog’i ko’rinibdi – u qizining ahvoli haqida xabar olib kelibdi. U yetib kelguncha, shoir xavotir ichida kutib turibdi. U kelib, “otang vafot etdi” deydi. Shoir xursand bo’lib ketipti (yori o’lmaniga bo’lsa kerak-da). Asarni maqtagan tappa-tuzuk shoirlar xuddi ana shu joyni “ichki dunyoni ochishdagi yangi kashfiyot” deb taqdim etishdi. Kashfiyot o’lsin shunaqa bo’ladigan bo’lsa! Bunaqa gaplar she’rda chinakam she’riyat, nafosat o’rniga, sahnada ko’rsatiladigan yasama o’yinlar, sun’iy qiliqlar ko’payib ketayotganini ko’rsatmaydimi? Oq qog’ozning tili, zaboni yo’q – nimani yozsangiz chidayveradi, ammo iste’dodning iste’dodligi shundaki, u nimani yozishni bilishdan tashqari, nimani yozmaslik kerakligini ham yaxshi bilishi kerak.”

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Mirziyoyev Sh.M.Erkin va farovon demokratik O’zbekiston davlatini bирgalikda barpo etamiz.-Toshkent: O’zbekiston, 2016.
2. Zulfiya. “Bahor keldi seni so’roqlab”.
3. Zulfiya. “Uni Farhod der edilar”. 1943
4. Zulfiya. “O’ylar”. 1965
5. Zulfiya. “Yillar, yillar”. 1975
6. Zulfiya. “Hijron kunlarida”. 1944
7. Qozoqboy Yuldashev. “Ochqichso’z”.
8. “So’z chamani. Zulfiya.” She’riy to’plam, Toshkent.